

O'ZBEKISTONNING IQTISODIY O'SISHI: OMILLAR, DRAYVERLAR VA NATIJALAR

Rashidova Odina

Tashkent State University of Economics, PhD student

o.rashidova@tsue.uz

+99899 645 64 68

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17939183>

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport hajmining o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim drayverlaridan biri ekanligi yoritib berilgan. Eksportda yuqori natijalarga erishayotgan elektrotexnika sanoati mahsulotlari yillik tahlili berilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, sanoat mahsulotlari, YaIM, drayver, eksport, elektrotexnika.

Kirish. Sanoat mahsulotlari eksportining o'sishi tashqi bozorlarda unga bo'lgan talab, hamda O'zbekiston sanoatining xalqaro qo'shilgan qiymat zanjirlarida ishtiroki ortib borayotganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti hajmi barqaror va ishonchli o'sib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mamlakatimizning so'nggi yillardagi iqtisodiy rivojlanishi natijalari borasida shunday dedi: "Keyingi sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz 2 karra oshib, o'tgan yili 115 mlrd. dollarga, eksport hajmi 26 mlrd. dollarga yetdi. Yil yakuni bilan yalpi ichki mahsulotimiz 130 mlrd. dollar bo'ladi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz tariximizda ilk bor 48 mlrd. dollardan oshdi, o'tgan sakkiz yilda yurtimizga qariyb 130 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar kirib keldi. Shubhasiz, bularning barchasi islohotlarimiz samarasi, taraqqiyotimizning mustahkam kafolati, nufuzli moliya institutlari va xorijiy kompaniyalarning O'zbekistonga yuksak ishonchidir".

Bu yutuqlarni tahlil qilar ekanmiz, olib borilayotgan islohotlar davomida amalga oshirilgan va shunday ajoyib natijalarga erishishga xizmat qilgan tarkibiy transformatsiya jarayonlariga batafsil to'xtalib o'tish zarur. Tarkibiy transformatsiya investitsiyalarni keng jalb qilish, bandlikni qo'llab-quvvatlash, mehnat unumdorligini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarga o'tish kabi asosiy yo'nalishlarga asoslanadi. Aynan shu yo'nalishlar asosida barqaror o'sish modeli shakllantirildi, u O'zbekiston YaIMning 2018yildagi 59 mlrd. dollardan 2025yilda kutilayotgan 130 mlrd. dollargacha o'sishini ta'minlab, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashuvi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Asosiy qism. Islohotlarning eng sezilarli natijasi iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi bo'ldi. 2017-2024 yillarda iqtisodiyotda sanoat ulushi 20 foizdan 26 foizga, xizmatlar sohasida esa 44 foizdan 47 foizga oshdi. Xuddi shu davrda iqtisodiyotda mehnat unumdorligi (bir ishchiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi) 45 foizga oshdi.

Shu bilan birga, YaIMda qishloq xo'jaligi ulushi 28 foizdan 19 foizga kamaydi, bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yiliga 2-3 foiz darajasida barqaror ijobiy o'sishi fonida yuz berdi. Ushbu jarayonlarda agrar sektor chuqur modernizatsiyaga uchradi. 2017 yildan boshlab klaster modelining joriy etilishi agroklastlar sonini 2 tadan 669 taga ko'paytirish imkonini berdi va bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Buning natijasida, masalan, meva-sabzavot eksporti ikki baravarga oshib, 2 mln. tonnadan oshdi.

Sanoatni rivojlantirish drayverlari orasida to'qimachilik, kimyo sanoati, elektrotexnika va mashinasozlik, farmatsevtika kabi yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlar, shuningdek, OKMK kabi strategik metallurgiya korxonalari ajralib turadi. Elektrotexnika, raqamli yechimlar va farmatsevtika kabi yuqori texnologiyali mahsulotlarning yangi segmentlari ulkan rivojlanishni boshdan kechirdi.

Bundan tashqari, so'nggi sakkiz yil davomida kuzatilayotgan sanoat mahsulotlari turlarining eksport salohiyati keng diversifikatsiya qilinayotgani muhim ahamiyatga ega. Ilgari eksport asosini eng ko'p xomashyo tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. O'zbekiston yangi xorij bozorlariga ham tobora faol kirib borayotgan bo'lib, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasini kengaytirmoqda.

To'qimachilik sanoatining YaIMdagi ulushi 2017 yildagi 2,4 foizdan 2024 yilda 2,8 foizga o'sdi, bugun esa butun sanoat mahsulotining 14 foizi uning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu davr mobaynida tarmoqda ishlab chiqarish hajmi ikki baravarga oshib, 10 mlrd. dollarga (129 trln. so'm) yetdi. Qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirish natijasida to'qimachilik sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 500 mln. dollardan 3,5 mlrd. dollargacha oshdi.


To'qimachilik tarmog'ida sifatli tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston paxta xomashyosini eksport qilishdan uni mamlakat ichida to'liq qayta ishlashga o'tdi va ushbu sektorda to'laqonli qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirdi. Natijada to'qimachilik mahsulotlari eksporti 1,1 mlrd. dollardan 3 mlrd. dollarga ko'payib, ya'ni qariyb uch baravar oshdi. Bugungi kunda to'qimachilik mahsulotlari eksporti qariyb 80 ta mamlakatni qamrab olgan, nomenklatura esa 600 ga yaqin turdagi to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotini o'z ichiga oladi.

2020-2024 yillarda kimyo sanoatida 7,1 mln. tonna mineral o'g'it (to'rt yil ichida o'sish 124,2 foizni tashkil etdi), jumladan, 5,4 mln. tonna azotli o'g'it (132,2 foiz), 634 ming tonna fosforli o'g'it (99,3 foiz) va 1,0 mln. tonna kaliyli o'g'it (104,3 foiz) ishlab chiqarildi.

2020-2024 yillarda kimyo sanoatiga 2 mlrd. dollar miqdorida investitsiya jalb etildi, 32 ta loyiha ishga tushirildi, natijada kimyo sanoatida o'sish sur'ati 1,5 baravarni tashkil etdi. Xususan, yetakchi korxonalar bo'yicha quyidagi raqamlarni keltirish mumkin. "Navoiyazot" AJda ishlab chiqarish 2,1 baravar, "Maksam-Chirchiq" AJda – 88 foiz, "Ammofos-Maksam" AJda – 91 foiz, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda 102,1 foiz, "Qo'ng'irotda soda zavodi" MChJda – 1,2 baravar oshdi. Kimyoviy mahsulotlar eksporti xuddi shu davrda 2,8 baravarga oshib, 2,1 mlrd. dollarni tashkil etdi.


So'nggi besh yilda kimyo sanoatida eksport tarkibi ham sezilarli darajada diversifikatsiya qilindi. Ilgari xomashyo tovarlari ustunlik qilgan bo'lsa, hozirda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar tobora ko'proq ulushni egallamoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston yangi kimyo mahsulotlari bozorlariga kirib, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasini kengaytirdi va ushbu sohadagi o'zi uchun yangi qo'shilgan qiymat zanjirlariga qo'shilmoqda.

Tahlil va natijalar. 2017-2024 yillarda elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3,7 trln. so'mdan 30,1 trln. so'mga oshdi. Xususan, elektr kabellari, simlar va mis mahsulotlari ishlab chiqarish 1,72 trln. so'mdan 13,0 trln. so'mgacha; maishiy texnika ishlab chiqarish – 927 mlrd. so'mdan 9,54 trln. so'mgacha; texnik maqsadlarda foydalaniladigan moslamalar ishlab chiqarish esa 1,03 trln. so'mdan 7,62 trln. so'mgacha oshdi.



1-rasm. Elektrotexnika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlari (mln.dollar)

Ushbu davrda elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish sektoriga kiritilgan jami investitsiyalar 1,3 mlrd. dollarni tashkil etdi (2017 yildagi 84,1 mln. dollarga nisbatan 2024 yildagi 485,5 mln. dollar). Umumiy qiymati 1,289,7 mln. dollarlik 348 ta yangi investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Shunday keng ko'lamli investitsiyalar natijasida qo'shimcha 22,3 ming ish o'rni yaratildi, eksportchi korxonalar soni 268 taga yetdi, elektrotexnika mahsulotlari eksporti geografiyasi 62 ta davlatga kengaydi.



2-rasm. Elektrotexnika sanoati mahsulotlari eksport hajmi ko'rsatkichlari (mln.dollar)

Xuddi shu davrda elektrotexnika mahsulotlari eksporti hajmi 6,9 baravarga oshib, 1301,8 mln. dollarga yetdi, shu jumladan, elektr kabellari, simlar va mis mahsulotlari eksporti 5,3 baravar – 146,9 mln. dollardan 782,6 mln. dollarga; maishiy texnika 8,8 baravar – 20,6 mln. dollardan 181,5 mln. dollarga; texnik maqsadlarda foydalaniladigan moslamalar va boshqa elektrotexnika buyumlari eksporti 15,3 baravar – 22,2 mln. dollardan 337,6 mln. dollarga o'sdi.

Xulosa. Xulosa o'rnida yana bir bor ta'kidlash kerakki, aynan uchta asosiy yo'nalish: (1) infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalar iqtisodiy o'sishning ishonchli negizi sifatida; (2) bandlikni ta'minlash demografik xatarga javob sifatida va (3) iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi samaradorlikni oshirish va yanada yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga o'tish omili sifatida O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sish modelining asosini tashkil etdi, bu esa mamlakatga yanada jadal rivojlanish va jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashuv imkonini berdi.

Lekin shu bilan birga, milliy iqtisodiyotimiz sifat jihatidan qanchalik o'zgarsa, iqtisodiyot uchun zamonaviy ta'lim olgan va kasbiy tayyorgarlikka ega kadrlar shunchalik zarur bo'ladi. "Sifatli ta'lim-tarbiya, aholimiz salomatligi – kelgusi taraqqiyotimizni hal qiladigan eng muhim masala", dedi davlatimiz rahbari nutqida. So'nggi yillarda bu yo'nalishda ko'p ishlar amalga oshirildi.

Oxirgi sakkiz yilda bolalar bog'chalaridagi o'rinlar soni 2,5 mln.taga yetkazildi, qamrov esa 78 foizga kengaydi. Maktablarda qo'shimcha 1 mln.ta o'quvchi o'rni yaratildi. Oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga o'sdi. Dunyoning nufuzli universitetlarida 2000 dan ziyod o'zbekistonlik talaba tahsil olmoqda. O'tgan yili O'zbekiston yoshlari dunyoning top-500 talik oliygohlariga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi. Joriy yilning o'zida O'zbekiston yoshlari xalqaro fan olimpiadalarida 2 ta oltin, 8 ta kumush va 5 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Shu tariqa, ta'limga oid islohotlar davomida nafaqat bugungi iqtisodiyot, balki kelajak uchun ham kadrlar tayyorlash masalasi muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar aholi farovonligini yuksaltirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, O'zbekistonning 2030-yilga borib daromad darajasi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga kirishi bo'yicha maqsadlarga erishish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Obid Hakimov, *Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi*. "Iqtisodiy sharh" jurnali, №10/2025.
2. Y. Qutbiddinov. O'zbekistonning elektrotexnika sanoati. Iqtisodiy sharh. –2023.
3. Mamayusupova Mashxura Sodiqovna (2023). Elektrotexnika sanoati mahsulotlarinig eksport salohiyatini oshirish rivojlanishning muhim omili sifatida. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (2), 65-72. doi: 10.5281/ zenodo.7732836.
4. Mamayusupova Mashxura Sodiqovna (2023). Tashqi savdo siyosatini mustahkamlash va eksportni rag'batlantirishda elektrotexnika sanoati mahsulotlarining roli va ahamiyati. *Ekonomika i finansi (Uzbekistan)*, (4 (164)), 14-20. doi: 10.34920/eIf/VOL_2023_ISSue_4_3.
5. Rashidova O. ELECTROTECHNICAL INDUSTRY AS AN IMPORTANT DRIVER OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 57-63.